CHET TILLARINI O‘QITISHDA TURLI XIL TA’LIMIY O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Sharopova Gulnoza

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Xalqaro ta’lim fakulteti stajor assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqola turli xil ta’limiy o‘yinlardan foydalanishning foydalanish afzalligi haqida fikr yurililadi. Maqolada hozirgi vaqtdagi pedagogik jarayonda bu o‘yinlarning ahamiyati qanchalik muhim ekanligi ham yorilib boriladi.

Kalit so‘zlar: yangi metodlar, til o‘rganish jarayoni, ta’limiy o‘yinlar

Abstract. This article discusses the advantages of using various educational games. It also highlights how important these games are in the modern pedagogical process.

Keywords: new methods, language learning process, educational games

Аннотация. В данной статье рассматриваются преимущества использования различных образовательных игр. Также раскрывается, насколько важную роль эти игры играют в современном педагогическом процессе.

Ключевые слова: новые методы, процесс изучения языка, образовательные игры

KIRISH

Hozirgi kunda chet tililarini o‘qitish ta’lim sohasidagi eng dolzarb masallardan biridir. Chunki, har bir sohaga zamonaviy yondashuvlar kirib kelayotgan bir davrda chet tilini o‘qitish ham shunday zamonaviy metod va til o‘qitish jarayonlarini talab qilayapdi.

O‘qivchini oddiy, eskirgan o‘qitish texnikalari bilan endilikda o‘qituvchi o‘ziga qarata olmaydi. Bunday dars esa o‘z sifatini yo;qotib boradi. Dars davomida turli xil ta’limiy metodlar, o‘yinlardan foydalanish har bir o‘rganuvchiga shu sohaga bo‘lgan e’tiborini yanada oshiradi.

Qadimda ham ta’lim jarayonida faqatgina yozish, o‘qish va tinglshdan tashqar turli xil zehnni charxlovchi, xotirani va idrokni yaxshilovchi o‘yinlargan foydalanib kelingan. Bunday o‘yinlar har bir farzandiga e’tiborli bo‘lgan xonadonlarda olib borilgan. Jumladan, Sharq xalqlari orasida “Bahrubayt” ya’ni so‘zning baytning oxirgi harfiga mos keluvchi harf bilan boshlanuvchi she’r aytish, yoki “Kim ko‘p maqol bilar?”, bayt ma’nosining tubidagi yashirin ma’noni topish uchun esa “So‘z o‘yini” mohirlik bilan o‘ynalgan.

Ta’limiy o‘yinlar haqida so‘z borganda shaxmatning alohida o‘rni bor. Chunki bu o‘yin har bir davrda ham juda dolzarb hisoblangan. Xususan, shoh saroylarida yosh shaxzodalarni tarbiyashda bu o‘yin uchun maxsus bilimga ega bo‘lgan murabbiylar jalb etilgan. Ular bu o‘yin orqali kelajakda davlatni

ISSN 3030-3907

boshqarishda va jang san'atida o'ziga xos strategiylarini qo'llashda o'z bilimlarini mustahkamlab borishgan.

G'arb olamida ham Ludo- strategiya va raqibni o'rganish metodi, shaxmat, Tabula kabi o'yinlar o'ynalgan, G'arb faylasufi Homer ham o'z asarida ta'limiy o'yinlarning ahamiyati qanchalik yuori ekanligi haqida yozadi.

Hozirga davrda ham o'yinlar bola hayotining ajralmas qismidir. Har kuni 8-12 yoshli bola o'rtacha o'zining 5 soat vaqtini o'yin bilan o'tkazadi. Ta'limiy o'yinlar bolaning aqliy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatlidir.

Ilmiy tadqiqotchilar ko'rsatishicha, o'yinlarning aksariyati o'quvchilarning kognitiv (bilish) ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'yinlar jarayonida bolalarning ko'pchiligi nutqiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantira oladi. Ijodkorlikka asoslangan o'yinlarning aksariyati o'quvchilarga turli fanlarni o'rganishda ham yordam beradi. Ma'lumotlarni eslab qolish va avvalgi bilimlarni takrorlashda aqliy o'yinlar juda foydalidir.

Ilmiy tadqiqotlar jurnali Paper (TM) tadqiqotlariga ko'ra, so'rovnomada qatnashganlarning 48 foizi ta'limiy o'yinlar o'qitish jarayonida samarali bo'lishiga ishonishini bildirgan. Metodika jarayonida qo'llaniladigan turli o'yinlar o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ularni til o'rganish darslarida qo'llashning bir qancha afzalliklari mavjud. Olimlar Rafael Prieto de Lope va

F. L. Gutiérrez Vela o'z asarlarida o'yinlarning ijobiy jihatlari haqida yozganlar. Ular o'yinlar quyidagi imkoniyatlarni berishini ta'kidlaganlar:

• idrok etish vaqtini qisqartiradi
• qo'l–ko'z muvofiqligini yaxshilaydi
• o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi
• tasavvurni rivojlantiradi
• interaktiv o'rganishni rag'batlantiradi
• qiyinchiliklarni yengish
• izlanish faoliyatini va o'rganishga bo'lgan istakni kuchaytiradi
• ijtimoiy ko'nikmalar va asosiy matematik bilimlarni rivojlantiradi
• kognitiv (bilish) ko'nikmalarni rivojlantiradi

Chet tillarini o'qitishda o'yinlar orqali ta'lim berish asosan o'quvchilarni yanada faol o'qishga undaydi va bilimlarni turli jarayonlarning barcha sohalarida rivojlantirish qobiliyatini oshiradi. O'quvchilarni o'qitishda qo'llash mumkin bo'lgan bir qancha o'yin turlari mavjud. Chet tillarini o'qitish jarayonida turli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni kuchli rag'batlantiradi. Ba'zi o'yinlar faqat bitta so'zlar ro'yxati yordamida o'ynalishi mumkin bo'lsa, boshqalari hozirgacha o'rganilgan barcha lug'at birliklarini qamrab olgan holda takrorlash mashqlari

ISSN 3030-3907

sifatida samarali ishlatiladi. O‘quvchilarning xotirasini rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlarning aksariyati ularni qiyinchiliksiz qo‘llashga yordam beradi.
O‘qitish jarayonida o‘qituvchilarga yordam beradigan juda ko‘p o‘yinlar mavjud. Ulardan biri **“Juftlikda ishlash (Pair Work)”** deb ataladi. Bu o‘yinda o‘qituvchi doskaga bir nechta yangi so‘zlarni yozadi va o‘quvchilar ularni yodlab olishlari kerak bo‘ladi. O‘quvchilar juft bo‘lib o‘tiradilar va har bir juftlik alohida guruh hisoblanadi. Ularning vazifasi berilgan so‘zlarni qisqa vaqt ichida o‘rganib olishdir. Qaysi guruh tayyor bo‘lsa, doskaga chiqib so‘zlarni yoddan aytib beradi. Agar juftlikdagi o‘quvchilardan biri barcha so‘zlarni ayta olsa-yu, ikkinchisi xato qilsa, bu guruh topshiriqni bajarmagan hisoblanadi va ikkala o‘quvchi ham baholanmaydi.

Ushbu o‘yinni ta’limning barcha bosqichlarida qo‘llash mumkin. O‘qituvchilar uni maktablarda ham, oliy ta’lim muassasalarida ham ishlatishlari mumkin. Bu esa o‘qituvchi tanlagan materialga bog‘liq. O‘qituvchi o‘yin uchun mos, juda qiyin ham, juda oson ham bo‘lmagan materialni tanlashi kerak. Shuningdek, tanlangan o‘yinning afzalliklaridan biri shundaki, o‘quvchilar bir-birlariga so‘zlarni o‘rgatishga harakat qiladilar va so‘zlarni tez yodlashga intilishadi. Faoliyat davomida o‘qituvchi sinfda iliq va qulay muhit yaratadi. O‘qituvchi dars vaqtida ushbu o‘yinni yangi so‘zlarni o‘rgatish va o‘quvchilarning bilimlarini oshirish uchun qo‘llashi mumkin. O‘yin ko‘p vaqtni olmaydi va dars boshida ishlatilishi mumkin. Yangi mavzuning so‘zlarini yodlash uchun o‘yin juda foydalidir.

O‘yin jarayonida hatto turli darajadagi o‘quvchilar ham bitta jamoa bo‘lishi mumkin. Masalan, ilg‘or va o‘rta, yoki o‘rta yuqori va boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilar bir jamoa bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatda past darajadagi o‘quvchi ham jamoasiga yordam berish uchun ko‘p harakat qiladi. Bu boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilarda motivatsiyani oshiradi.
O‘yinning yana bir afzalligi shundaki, u yangi mavzuni tushuntirishni osonlashtiradi. Chunki o‘quvchilar mavzuning yangi so‘zlarini oldindan bilsa, o‘qituvchiga yangi mavzuni tushuntirish osonroq bo‘ladi.
Masalan, o‘qituvchi 6-sinf uchun “O‘rmon” mavzusini o‘rganmoqchi. O‘qituvchi doskaga so‘zlarni yozadi:
Bush- buta
Cave – g‘or
Mountain- tog‘
Desert – cho‘l
Send – qum
Root - ildiz

ISSN 3030-3907

Climate- iqlim
Mushroom- qo‘ziqorin
Herb- giyoh
Oak- eman
Birch – qayin

Berilgan so‘zlarni o‘quvchilar ikki -uch minut ichida yodlashlari kerak bo‘ladi. Bu metod orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

“Draw That” — bu doska yoki daftarlarni talab qilmaydigan o‘yin. O‘quvchilar so‘zlarni ifodalash uchun rasmlar va belgilar topishga majbur bo‘ladilar. Ushbu faoliyat yosh o‘quvchilar uchun xotirani mustahkamlovchi vosita sifatida konspekt tuzishga o‘tish uchun juda qulay. Shuningdek, bir nechta rasmlar va diagrammalardan foydalanish mumkin.

1. O‘qituvchi mavzuga oid lug‘at so‘zlari yozilgan kartochkalarni tayyorlaydi.
2. O‘quvchilar ikki yoki uch guruhga bo‘linadi.
3. Birinchi guruhdagi o‘yinchi so‘zni tanlaydi.
4. O‘yinchi tanlangan so‘zni doskaga rasm orqali chizib ko‘rsatishi kerak.
5. Boshqa o‘yinchi vaqt tugashidan oldin so‘zni aniq topishi kerak

Bu ham juda foydali o‘yin. Bu o‘yin orqali xotira mustahlaklanadi. O‘quvchilar o‘z zehnini charxlaydi. O‘yin davomida o‘quvchilar orasida iliq muhit yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. YOROVA, S. LATIN AND ITS SIGNIFICANCE IN MEDICAL PROFESSION. Курский государственный медицинский университет КОНФЕРЕНЦИЯ: 20–24 мая 2024 года Организаторы: Курский государственный медицинский университет БИБЛИОМЕТРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ: Входит в РИНЦ: да Цитирований в РИНЦ: 0 Входит в ядро РИНЦ: нет Цитирований из ядра РИНЦ: 0 Рецензии: нет данных ТЕМАТИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ:
2. (Nasimova Sohiba Yaxyayevna, Trans.). (2025). London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI), 2(1), 502-503.
3. Tolibjonova, Z. B., & Nasimova, S. Y. (2025). Language diversification in ancient period. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, 3(1), 343-345.
4. Karimovna, Y. S. Pragmatic and Linguistic Peculiarities of Medical Discourse in English and Uzbek Languages.
5. Шодикулова, А. З. (2023). АНТОНИМЛАР ВОСИТАСИДА ШАКЛЛАНАДИГАН МЕТОНИМИК КОГЕЗИЯ. Research Focus, 2(5), 80-84.

ISSN 3030-3907

6. Zikiryaevna, S. A. (2025). BRAIN: THE MOST PERFECT ORGAN. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(2), 159-163.
7. Mallaevna, N. S., & Chopra, A. (2024). Some features of prescription rules in medicine. technical science research in Uzbekistan, 2(1), 238-244.
8. Nadine Palmer. Gaming in the classroom improves teaching and learning 2024.
9. Эсанова, М. Б. (2022). Инглиз ва ўзбек тилларидаги қўшма гапларнинг тўсиқсиз маъноли турлари. Science and Education, 3(11), 1372-1375.
10. Mallaevna, N. S. (2023). THE MAIN INDICATORS OF THE COMMUNICATION CULTURE OF A MEDICAL WORKER. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(7),
11. Sharopova G.O (2025) Advantages of case and method in teaching foreign languages. Multidisciplinary Journal of Science and Technology.2276-2280p
12. https://paper.co/blog/game-based-learning-in-education-a-quick-history

ISSN 3030-3907